

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14003742>

TURKIY TILLAR GRAMMATIK QURILISHINING TARIXIY-TIPOLOGIK XUSUSIYATLARI

Shamsudinova Iqbol

Ilmiy rahbar

Fozilova Gulnora

Eshmurodova Dilobar

TerDu, o'zbek filologiyasi fakulteti talabalari

Annonatsiya: Ushbu maqolada turkiy tillarning grammatik qurilishi haqida ma'lumotlar berilgan bo'lib, uning o'ziga xos xususiyatlari misollar bilan ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Turkiy tillar, grammatik ma'no, tarixiy-tipologik, to'plam, tasnif.

Turkiy tillar grammatikasi hozirgi o'zbek tilining rivojlanishi uchun muhim rol o'ynaydi. Turkiy tillar grammatikasi o'ziga xosdir. Turkiy tillarning go'zalligi va takrorlanmas tilligini, bu tilni o'rgangandan keyingina anglash mumkin. Turkiy tillar, turkiy xalqlarining madaniyati va tarixi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, o'zining noyob grammatik qurilishi va tipologik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ushbu maqolada turkiy tillarning grammatik tuzilishi, ularning tarixiy rivojlanishi va tipologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Turkiy tillar o'z tarixida bir necha asosiy bosqichlardan o'tgan. Dastlabki bosqichda (V-VIII asrlar) O'rta Osiyoda yashovchi turkiy qabilalar o'rtasidagi aloqalar natijasida turkiy tillar o'ziga xos xususiyatlar va strukturaviy elementlarni shakllantira boshladi. Bu davrda og'zaki adabiyot va qabilalararo aloqalar o'ta muhim ahamiyatga ega edi. X-XII asrlarda turkiy tillar o'zaro ta'sirda bo'lib, musulmon madaniyati va adabiyoti ta'sirida rivojlandi. Bu davrda

turkiy tillarda yozma manbalar, xususan, “Kutadgu bilig” va “Divanu lug‘at at-turk” kabi asarlar paydo bo‘ldi. Bu asarlar orqali turkiy tillarning grammatika va leksikasi rivojlandi. Turkiy tillarda so‘z tartibi odatda SOV (Subyekt-Obyekt-Fel) ko‘rinishida bo‘ladi, bu esa grammatik ma’nolarni aniqlashda qo‘sishchalar va kontekstga bog‘liqdir. Shuningdek, turkiy tillarda kelishiklar tizimi rivojlangan bo‘lib, bu tilning sintaktik va morfologik tuzilishini boyitadi. Misol: O‘zbek tilida “kitob” so‘ziga qo‘sishchalar qo‘sish orqali:

“kitob” (kitob)

“kitobim” (mening kitobim)

“kitoblaring” (sening kitoblaring)

Bu misolda har bir qo‘sishcha so‘zning ma’nosini o‘zgartirib, yangi ma’nolar keltiradi. Turkiy tillarda grammatik ma’no quyidagi usullar orqali ifodalanadi:

1. Elementar morfologik birliklar.
2. Agglyutinativ usulda grammatik ma’no ifodalash bilan birga, fleksiya asosidagi shakllar ham voqealanadi.
3. Fonetik ikkilantirish, leksik urg‘uni o‘zgartirish grammatik ma’noni ifodalashning bir usulidir.
4. O‘zakning takror qo‘llanishi natijasida grammatik ma’no ifodalanadi.
5. Turli so‘z shakllari tarkibida keluvchi morfologik birliklarning o‘zaro aloqasi natijasida analitik shakllar hosil qilinadi.

Turkiy tillar grammatik qurilishi va tipologik xususiyatlari bilan boy bo‘lib, ular o‘z tarixiy rivojlanishi davomida ko‘plab o‘zgarishlarni boshdan kechirdi. Agglutinativ tuzilishi, o‘ziga xos so‘z tartibi va kelishiklar tizimi turkiy tillarning xususiyatlarini tashkil etadi. Kelajakda bu tillarning rivojlanishi va saqlanishi, ularning madaniy merosi va identifikatsiyasini davom ettirish uchun muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. X.A. Dadaboyev, Z.T. Xolmanova “Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi”. :Toshkent-2015
2. Yo. Abdurasulov, “Turkiy tillarning qiyosiy tarixiy grammatikasi”. Toshkent. “Fan” nashriyoti. 2009